



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2021 y. "25" noyabr

№ 49

“Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom” ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomini yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 28- iyundagi 34- son qarori bilan tasdiqlangan “Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomi”ga (keyingi o'rinlarda – Nizom) ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Ushbu qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
 Davlat statistika qo'mitasining
 2021- yil "25" noyabr dagi
49 son qaroriga
 ILOVA

**Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini
 shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga
 kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Nizomdagi "I - VI" raqamlari "1 - 6" raqamlari bilan almashtirilsin va ushbu raqamlardan so'ng "BOB" so'zi bilan to'ldirilsin.

2. Nizomning 2- BOB 10- bandidan keyin 11- band quyidagi tahrirda qo'shilsin:

"MHT-2008 tavsiyalari asosida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar asosiy fondlar tasniflagichi bo'yicha guruhlariga ajratiladi;

Asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi 2- ilovada keltirilgan".

3. Nizomdagi 11-32-bandlar tegishli ravishda 12-33- bandlar deb hisoblansin:

4. Nizomning 3- BOB 13- bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

a) investitsiya faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari;

b) kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining tanlanma kuzatuv natijalari;

v) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi bo'yicha Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmalarining statistika hisobotlari;

g) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari".

5. Nizomning 3- BOB 14- bandidagi "2- ilovada" so'zi "1- ilovada" so'ziga almashtirilsin.

6. Nizomning 4- BOBga quyidagi o'zgartirishlar kiritilsin:

15- bandidan "davlat" so'zi chiqarib tashlansin;

15- bandi a) kichik bandidagi "2- invest shakli" so'zlari "1- invest (asosiy) shakli" so'zlari bilan almashtirilsin;

15- bandi b) kichik bandidagi "1- KB shakli" so'zlari "1- kb shakli" so'zlari bilan almashtirilsin;

15- bandi v) kichik bandidagi “1- FX shakli” so‘zlari “1- fx shakli” so‘zlari bilan almashtirilsin;

15- bandi d) kichik bandidagi “1- NNT shakli” so‘zlari “1- nnt shakli” so‘zlari bilan almashtirilsin;

15- bandi e) kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin;

“1- qurilish (jismoniy) shakli “Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda qurilgan turar joylarni va noturar binolarni foydalanishga topshirish to‘g‘risida hisobot” – Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari taqdim etadilar”;

15- bandi j) kichik bandidagi “1- DX shakli” so‘zi “2- dx shakli” so‘zi bilan almashtirilsin;

15- bandi z) kichik bandidagi “1- TJ” so‘zi “1- tj” so‘ziga almashtirilsin;

15- bandi i) kichik bandidagi “1- bozor” so‘zi “5- bozor” so‘ziga almashtirilsin.

7. Nizomning 4- BOB 16- bandidagi “2- invest, 1- KB, 1- FX, 1- notijorat va 1- NNT” so‘zlari “1- invest, 1- kb, 1- fx, 1- notijorat va 1- nnt” so‘zlari bilan almashtirilsin.

8. Nizomning 4- BOB 18- bandidagi “4- qurilish” so‘zi “1- qurilish (jismoniy)” so‘zi bilan almashtirilsin.

9. Nizomning 4- BOB 19- bandidagi birinchi va ikkinchi xatboshidagi “1- DX” so‘zi “1- dx” so‘zi bilan almashtirilsin.

10. Nizomning 4- BOB 20- bandidagi “1- DX” so‘zi “1- dx” so‘ziga hamda “(1- bozor)” so‘zi (5- bozor) so‘zi bilan almashtirilsin.

11. Nizomning 5- BOB 25- bandi to‘rtinchi xatboshisidagi “1- ID” so‘zi “4- invest (asosiy)” so‘zi bilan almashtirilsin.

12. Nizomning 5- BOB 28- bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:


“Har chorakda yakka tartibdagi noturar joy quruvchilarning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi, Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlarining foydalanishga topshirilgan noturar joy obyektlarining qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanib aniqlanadi;

Bunda, o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi hisobot davrida foydalanishga topshirilgan noturar joylar qiymatiga teng ravishda qabul qilinadi”.

13. Nizomga quyidagi mazmundagi 1- ilova qo‘shilsin:

“Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom”ga
1-ILOVA

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish sxemasi



14. Nizomdagi 1-ilova tegishli ravishda 2- ilova deb hisoblansin.
15. Nizomdagi “2-ilova” chiqarib tashlansin.